

RAYMBERDIYEV Ahad

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO kafedrası tayanch doktranti*

IMOM TERMIZIY "SUNAN" ASARI TAFSIR BOBIDA "NISO" SURASI TAFSIRIGA OID HADISLAR TAHLILI

AN ANALYSIS OF HADITHS PERTAINING TO THE TAFSIR OF SURAH AN-NISA IN THE CHAPTER ON TAFSIR OF IMAM AT-TIRMIDHI'S «SUNAN»

АНАЛИЗ ХАДИСОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ТАФСИРУ СУРЫ «АН-НИСА», В ГЛАВЕ О ТАФСИРЕ СБОРНИКА «СУНАН» ИМАМА ТИРМИЗИ

Annotatsiya. Hadis ilmi islom manbashunosligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, Qur'oni karim oyatlarini to'g'ri talqin qilishda, tafsir metodikasini boyitishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Bu ilm doirasida shakllangan yirik hadis to'plamlari orasida Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning (824-892) "Sunan" asarida "Niso" surasining meros vasiyat, ota-onaga yaxshilik, ayollarning ijtimoiy o'rni kabi dolzarb mavzular bilan bog'liq oyatlari sharhlangan hadislar orqali ochib beriladi. Ayniqsa, meros masalasidagi tafovutlar, ayol-erkakning huquqlari va bu tafovutlarning shariatdagi asoslari mufassal yoritilgan. Hadislarda bayon etilgan voqealar asosida musulmon jamiyatida adolat, ijtimoiy tenglik va huquqiy tafovutlar masalalari ham yoritilgan. Maqola hadis ilmi bilan tafsir ilmi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, Qur'oni karim oyatlarining chuqur talqinida hadislarining o'rni naqadar muhim ekanini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Hadis ilmi, tafsir, manbashunoslik, Imom Termiziy, Sunan, Niso surasi, meros vasiyat, ota-onaga yaxshilik, ayollarning huquqlari, ijtimoiy tenglik, huquqiy tafovut, Qur'on talqini, tafsiriy hadis, shariat, fiqhiy tafsir.

Abstract. The science of Hadith is one of the main branches of Islamic source studies and is recognized as a crucial source for the correct interpretation of the verses of the Holy Qur'an and for enriching the methodology of tafsir (exegesis). Among the major hadith collections

formed within this science, the work «Sunan» by Imam Abu Isa Muhammad ibn Isa at-Tirmidhi (824-892) elucidates, through hadiths, the verses of Surah An-Nisa related to such topical issues as inheritance and bequest, kindness to parents, and the social status of women. In particular, the distinctions in matters of inheritance, the rights of women and men, and the foundations of these distinctions in Sharia are explained in detail. Based on the events described in the hadiths, issues of justice, social equality, and legal distinctions within Muslim society are also highlighted. The article demonstrates the connection between the science of Hadith and the science of Tafsir, emphasizing the significant role of hadiths in the profound interpretation of the verses of the Holy Qur'an.

Keywords: Science of Hadith, tafsir, source studies, Imam at-Tirmidhi, Sunan, Surah An-Nisa, inheritance and bequest, kindness to parents, women's rights, social equality, legal distinction, Qur'anic interpretation, exegetical hadith, Sharia, jurisprudential exegesis (fiqh tafsir).

Аннотация. Наука о хадисах (хадисоведение) является одной из основных отраслей исламского источниковедения и признаётся важнейшим источником для правильного толкования аятов Священного Корана и обогащения методологии тафсира. Среди крупных сборников хадисов, сформировавшихся в рамках этой науки, в труде Имама Абу Исы Мухаммада ибн Исы ат-Тирмизи (824–892) «Сунан» через хадисы разъясняются аяты суры «Ан-Ниса», связанные с такими актуальными темами, как наследование и завещание, доброта к родителям и социальное положение женщин. В частности, подробно освещаются различия в вопросах наследования, права женщин и мужчин, а также основы этих различий в шариате. На основе событий, изложенных в хадисах, также рассматриваются вопросы справедливости, социального равенства и правовых различий в мусульманском обществе. Статья демонстрирует связь между наукой о хадисах и наукой тафсира, подчёркивая исключительную важность хадисов в глубоком толковании аятов Священного Корана.

Ключевые слова: Хадисоведение, тафсир, источниковедение, Имам ат-Тирмизи, Сунан, сура «Ан-Ниса», наследование и завещание, доброта к родителям, права женщин, социальное равенство, правовые различия, толкование Корана, экзегетический хадис, шариат, правовой тафсир (фиqh-тафсир).

KIRISH

Islom ilmlari tizimida hadis ilmi alohida o'rin egallaydi. U nafaqat Payg'ambar Muhammad

(s.a.v.) ning hayoti, soʻzlari va amaliyotlarini oʻrganish, balki Qurʼoni karim oyatlarining mazmunini chuqurroq tushunishda ham asosiy manba hisoblanadi. Xususan, tafsir ilmining shakllanishida va uning metodologik asoslarini boyitishda hadislar muhim rol oʻynaydi. Qurʼon oyatlarini faqatgina til jihatidan emas, balki sabab nuzul, tarixiy kontekst, fiqhiy tafakkur va ahkom nuqtayi nazaridan talqin qilishda hadislarining ahamiyati beqiyosdir.

Imom Termiziy tomonidan tuzilgan “Sunan” asari hadis ilmining bebaho manbasi sifatida eʼtirof etilib, unda faqat hadislar jamlanmagan, balki ularning sanad (rivoyat zanjiri), darajasi va mazmuni ham batafsil tahlil qilingan. Asarda joy olgan “Tafsir” bobida Qurʼoni karimdagi koʻplab oyatlar hadislar asosida sharhlangan boʻlib, bu yondashuv Qurʼon va sunnatning oʻzaro bogʻliqligini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur maqolada aynan “Niso” surasiga oid tafsiriy hadislar tahlil qilinadi. Ushbu sura islom huquqi, jamiyat, oila va shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi oyatlar bilan boy boʻlib, uning tafsiri orqali musulmon jamiyatida meros vasiyat, ayollar huquqi, ota-onaga ehtirom kabi ijtimoiy-muammoli masalalarga shariat nuqtayi nazaridan yondashuv oʻrganiladi. Ayniqsa, hadislarda bu oyatlarning qanday sharhlangani, sahobalarning mazkur oyatlarga munosabati va bu tafsirlarning hozirgi davrdagi dolzarbligi maqolada asosiy eʼtibor markazida boʻladi [1:233].

ASOSIY QISM

“Sunan” asarida Tafsir bobida Qurʼoni karim oyatlarining baʼzilarini tafsir qilingan hadislar keltirilgan. Ushbu bob 95 ta kichik boblarga boʻlingan boʻlib har bir bobda maʼlum bir suraning baʼzi oyatlariga qilingan tafsirlar bayon qilingan. Tafsir bobida 488 ta hadis oʻrin olgan [1:55].

Imom Termiziy hadis ilmidan tashqari fiqh, aqida va tafsir ilmlarida ham yuksak ilmiy darajaga yetgan olimlardan biri hisoblanadi. U ustozlari qatorida imom Buxoriy, imom Muslim va boshqa mashhur muhaddislarni koʻrsatadi. Uning “Sunan” asari hadislarini toʻplash bilan birga, ularni tahlil qilish va izohlashga ham katta eʼtibor qaratilgan asardir.

“Sunani Termiziy” tafsiriy yondashuvning rivojlanishiga ham oʻz hissasini qoʻshgan boʻlib, oyatlarni tushuntirishda hadislarining roli qay

darajada muhim ekani ochib berilgan. Tafsir bobida “Niso” surasi 5-qismdan oʻrin olgan. Ushbu boʻlimda suraga oid 29 ta hadis keltirilgan. Hadislardagi mazmun vasiyat qilish, ota-onaga yaxshilik qilish, gunohi kabiralar, moʻmin kishining sifatleri haqida kelgan oyatlar tafsirini ifodalaydi.

عَنْ جَابِرِ بْنِ عَبْدِ اللَّهِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا قَالَ: مَرَضْتُ مَرَضًا، فَأَتَانِي النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يُعَوِّدُنِي وَأَبُو بَكْرٍ، وَهُمَا مَاشِيَانِ، فَوَجَدَانِي أَغْمِي عَلَيَّ، فَتَوَضَّأَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ ثُمَّ صَبَّ وَضُوءَهُ عَلَيَّ، فَأَقَفْتُ، فَإِذَا النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ، فَقُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، كَيْفَ أَصْنَعُ فِي مَالِي، كَيْفَ أَقْضِي فِي مَالِي؟ قُلْتُ: يَجِبُنِي بَشِيءٌ، حَتَّى تَرَلْتُ آيَةَ الْمِيزَانِ زَادَ مُسْلِمٌ: {يَسْتَفْتُونَكَ قُلِ اللَّهُ يُفْتِيكُمْ فِي الْكَلَالَةِ} [النساء: ٦٧١]، وَعِنْدَهُ فِي رِوَايَةٍ: فَتَرَلْتُ: {يُوصِيكُمُ اللَّهُ فِي أَوْلَادِكُمْ لِلذَّكَرِ مِثْلُ خِطِّ الْأُنثَيَيْنِ} [النساء: ١١].

Jobir ibn Abdulloh (r.a.) rivoyat qiladi:

“Men bir marta kasal boʻlib qoldim. Paygʻambar (s.a.v.) Abu Bakr bilan birga meni holimni soʻrashga keldilar. U zotlar piyoda edilar. Menga kelganlarida hushimdan ketgan edim. Shunda Paygʻambar (s.a.v.) tahorat oldilar, soʻng tahorat suvlarini ustimga toʻkdilar. Shunda hushimga keldim va qarasam, Rasululloh (s.a.v.) turibdilar. Men : “Yo Rasulalloh! Mol-dunyom bor, uni qanday qilay? Qanday tasarruf qilay?” dedim. Rasululloh menga hech narsa javob bermadilar, to oyat nozil boʻlgunga qadar” [1:57].

Ushbu rivoyat Imom Muslimning kitobida shu oyat qoʻshilgan holda bilan zikr qilinadi : “(Ey Muhammad!) Sizdan (meros haqida) soʻraydilar. Ayting: Alloh sizga kalola (yaʼni ota-onasi va farzandi yoʻq kishining merosi) haqida fatvo beradi” [9:322].

Yana boshqa rivoyatda esa :

“Alloh sizlarga farzandlaringiz (merosi) borasida vasiyat qiladi: erkakka ikki ayolning ulushidek (meros) tegadi” (Niso surasi, 11-oyat).

Islom oʻz izdoshlari bir tanadek boʻlishga undagan. Agar ulardan biri kasal boʻlsa, uni ziyorat qilishsin, ehtiyojiga tez yordam berishsin. Ushbu hadishda Jobir ibn Abdulloh (r.a.) hikoya qiladi: u bir safar ogʻir kasal boʻlib qoladi. Shunda Paygʻambar (s.a.v.) uni ziyorat qilishga keladilar. U zot bilan birga Abu Bakr Siddiq (r.a.) ham bor edi. Ular piyoda kelgan edilar. Bu voqea hijratning oʻninchi yili, Vidolashuv hajida yuz bergan.

Ular Jobir (r.a.) ni hushidan ketgan, ogʻir holatda topdilar. Rasululloh (s.a.v.) tahorat oldilar, keyin tahorat suvlarini Jobirga toʻkdilar. Shunda Jobir hushiga keldi. Koʻzini ochganida,

Payg‘ambarni (s.a.v.) ko‘rdi. Shunda Jobir: “Yo Rasulalloh, mol-dunyomga qanday munosabatda bo‘lay? Uni qanday tasarruf etay?” deb so‘radi. Ya‘ni o‘limidan keyin ortida qoladigan mol-mulk haqida nima qilish kerakligini so‘radi. Payg‘ambar (s.a.v.) unga bu savolga hech narsa demadilar. Toki meros hukmlari bayon qilingan oyat nozil bo‘lgunicha [6:211].

Bu oyat Niso surasining 176-oyati bo‘lib, unda shunday deyiladi:

“Sizdan (ey Muhammad) fatvo so‘raydilar. Ayting: Alloh sizga kalola (ya‘ni farzandi va ota-onasi bo‘lmagan kishi) haqida fatvo beradi. Agar bir kishi vafot etsa-yu, ortida farzandi bo‘lmasa va uning bir singlisi bo‘lsa, u holda singlisi merosning yarmiga ega bo‘ladi. Agar singlisi vafot etsa-yu, uning ham farzandi bo‘lmasa, unda akasi uning merosini oladi. Agar ikki singlisi bo‘lsa, ularning ulushi uchdan ikki bo‘ladi. Agar erkak va ayol birodarlar bo‘lsa, unda erkakka ikki ayolga teng ulush beriladi. Alloh sizga adashmanglar deb hukmni bayon qiladi. Alloh har bir narsani biluvchidir”. Payg‘ambar (s.a.v.) dan sahobalar kalolaning (ya‘ni ota-onasi va farzandi bo‘lmagan marhumning) merosi haqida shariat hukmini so‘raydilar. Alloh taolo ularni xabardor qiladi: agar bir kishi vafot etsa-yu, ortida farzand ham, ota ham qolmagan bo‘lsa, u holda u kishining opa-singillari meros oladi.

Agar uning birgina singlisi bo‘lsa, unga merosning yarmi tegadi. Agar o‘sha singlisi vafot etsa-yu, uning ham farzandi va ota-onasi bo‘lmasa, u holda akasi uning butun merosini oladi. Agar boshqa merosxo‘rlar (masalan, er) bo‘lsa, o‘z ulushini oladi, qolganini esa akasi oladi. Agar ikki yoki undan ortiq opa-singillar bo‘lsa, u holda uchdan ikki meros ulushi ular orasida bo‘linadi. Agar marhumning birodarlari (ya‘ni erkak va ayol) bo‘lsa, unda erkakka ikki ayolga teng ulush beriladi. Alloh taolo bu hukmlarni bayon qiladi, toki odamlar adashmasinlar. Alloh har narsani biluvchidir.

Yana boshqa bir hadisda esa me‘ros haqida shunday deyilgan :

حدثنا ابن أبي عمر حدثنا سفيان عن بن أبي نجيح عن مجاهد عن أم سلمة أنها قالت يغزو الرجال ولا يغزو النساء وإنما لنا نصف الميراث فأنزل الله { ولا تتمنوا ما فضل الله به بعضكم على بعض } قال مجاهد فأنزل فيها { إن المسلمين والمسلمات } وكانت أم سلمة أول طعينة قدمت المدينة مهاجرة قال أبو عيسى هذا حديث مرسل ورواه بعضهم عن بن أبي نجيح عن مجاهد مرسل أن أم سلمة قالت كذا وكذا

Ibn Abu Umar bizga rivoyat qilib aytdi: Sufyon Ibn Ubay Najihdan, u Mujohiddan, u esa Ummu Salama roziyallohu anhadan rivoyat qiladi: Ummu Salama aytadi: “Erkaklar jangga chiqadilar, ayollar esa chiqmaydilar. Bizga esa faqat merosning yarmi tegadi.” Shunda quyidagi oyat nozil bo‘ldi: “Alloh ba‘zilarni boshqalardan ustun qilgani uchun hasad qilmanglar (ya‘ni, orzu qilavermanglar).” (Niso surasi, 32-oyat).

Mujohid aytadi: Shundan keyin yana bu borada quyidagi oyat nozil bo‘ldi: “Albatta mo‘min erkaklar va mo‘min ayollar...” (Ahzob surasi, 35-oyat) Shuningdek, hadisda aytiladiki: Ummu Salama Madinaga hijrat qilgan birinchi ayol bo‘lgan. Imom Termiziy aytadi: Bu hadis mursal hisoblanadi (ya‘ni, sahobadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Payg‘ambarga isnod uzilgan, yoki hadis sahobiydan keyin to‘g‘ridan-to‘g‘ri rivoyat qilingan, bu esa sanadda uzilish borligini anglatadi).

Ba‘zilar bu hadisni Mujohidning so‘zi sifatida mursal ravishda rivoyat qilishgan, ya‘ni u shunchaki “Ummu Salama aytgan ekan...” deb rivoyat qilgan. Ummu Salama (r.a.) Islomda ayolning urushda ishtirok etmasligi va merosdagi ulushining erkaknikidan kam bo‘lishi haqida savol beradi. U shikoyat qilmadi, balki “nima uchun?”, degan fikr bilan tafakkur qilgan. Bu savol ayol sahobiyalar orasida ijtimoiy tenglikni tushunishga intilish bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu asosda Qur‘onda ikki oyat nozil bo‘lgan:

1. Niso surasi, 32-oyat:

وَلَا تَتَمَنَّوْا مَا فَضَّلَ اللَّهُ بِهِ بَعْضَكُمْ عَلَى بَعْضٍ

“Alloh ba‘zilarni boshqalardan ustun qilgani uchun orzu qilmanglar.”

Bu oyat erkak va ayol o‘rtasidagi tafovutlar borligini tan oladi, ammo bu tafovut adolat asosida belgilanganini bildiradi. Ular vazifa va mas‘uliyatda farqlidir, qadriyatda emas. Erkak urushadi, nafaqa beradi, mahr to‘laydi. Ayol tug‘adi, tarbiya qiladi, oila muhitini saqlaydi. Shunday ekan, erkakka ikki hissa meros berilishi - ortiqcha ustunlik emas, ortiqcha mas‘uliyatga yarasha taqsimotdir.

2. Ahzob surasi, 35-oyat:

إِنَّ الْمُسْلِمِينَ وَالْمُسْلِمَاتِ... أَعَدَّ اللَّهُ لَهُمْ مَغْفِرَةً وَأَجْرًا عَظِيمًا

Bu oyatda Alloh mo‘min erkak va ayollarni bir xil mukofot bilan siylaydi: mag‘firat va katta ajr.

Bu orqali ibodat, imon, sabr, sadoqat kabi sohalarda ayol va erkak teng ekanligi e'tirof etiladi.

Islomdagi merosdagi tafovutning falsafasi Qur'ondagi meros masalasidagi tafovutga asoslanadi. Erkak - oila ta'minotchisi hispblanadi. Er o'z vaqtida nafaqa beruvchi, xotin va farzandlarini boqishga mas'ul shaxsdir. Mahr to'lash, ijarani ta'minlash, urushda ishtirok qilish erkakka yuklangan [2:376].

Ayol esa ijtimoiy jihatdan himoyalangan. U nafaqa olish huquqiga ega, mahr oladi, turmushda moliyaviy javobgarlikdan ozod. Merosdan kichik ulush olsa-da, shariat unga moliyaviy zarar keltirmaydi. Shunday ekan, Islomda ayolga erkaknikidan kam meros berilishi adolat prinsiplariga muvofiq, chunki ayolning moliyaviy ehtiyoji o'ziga emas, jamiyat zimmasiga yuklangan.

حدثنا الحسن بن محمد الزعفراني حدثنا شعبة حدثنا
بن عمر عن عمرو بن دينار عن بن عباس عن النبي (v.a.s.)
قال يجيء المقتول بالقاتل يوم القيامة ناصيته ورأسه بيده وأوداجه
تشخب دما يقول يا رب هذا قتلني حتى يدنيه من العرش قال
فذكروا لابن عباس التوبة فتلا هذه الآية { ومن يقتل مؤمنا متعمدا
قال وما نسخت هذه الآية ولا بدلت وأنى له التوبة قال أبو عيسى
هذا حديث حسن غريب وقد روى بعضهم هذا الحديث عن عمرو
بن دينار عن بن عباس نحوه ولم يرفعه

Ibn Abbos (r.a.) dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: “Qiyomat kuni o'ldirilgan kishi o'zining qotilini yetaklab keladi. U qotilning peshonasidan ushlab, boshini qo'lida tutib, tomog'idan qon oqib turgan holatda: “Ey Rabbim! Shu odam meni o'ldirdi!” deya nido qiladi. So'ng Ibn Abbos (r.a.) oldida bu haqida gap ketganda, “Agar qotil tavba qilsa-chi?” deb so'rashdi. Shunda u bu oyatni o'qidi: “Kim bir mo'minni ataylab o'ldirsa, uning jazosi jahannamdir. U doimiy qoladi. Alloh unga g'azab qiladi, la'natlaydi va unga ulkan azob tayyorlab qo'yadi.” (Niso surasi, 93-oyat) [1:59].

Ibn Abbos dedi: “Bu oyat na mansux qilingan, na o'zgartirilgan. Qanday qilib u (ya'ni qotil) tavba qila oladi?” Imom Termiziy aytadi: “Bu hadis hasan g'aribdir. Boshqa roviylar bu hadisni Ibn Abbosdan faqat to'xtab rivoyat qilishgan (ya'ni marfu' emas) ”.

Qiyomat kuni qotillik jinoyatini sodir etgan kishi eng og'ir holatda jazolanadi. O'ldirilgan odam, qonli holatda, qotilni qo'lidan sudrab, Allohning arshiga yaqinlashtiriladi, ya'ni da'vo

bevosita Allohga taqdim etiladi. Bu manzara jinoyatning ruhiy va axloqiy og'irligini ifodalaydi. “Kim mo'minni ataylab o'ldirsa, uning jazosi jahannamdir. Unda mangu qoladi. Alloh unga g'azab qiladi, la'natlaydi va katta azob tayyorlab qo'yadi.” Bu oyat qotillikni eng og'ir gunoh sifatida ta'riflaydi, qotil uchun to'rtta jazoni zikr qiladi, jahannam, abadiy qolish, Allohning g'azabi, Allohning la'nati va azobi haqida zikr qiladi. Ibn Abbos (r.a.) bu oyatni mansux emas (ya'ni bekor bo'lmagan), hukmi o'zgarishsiz degan. U kishi qotilga tavba eshigi ochiqligi borasida shubha bildirgan. Bu shuni anglatadiki mo'minni ataylab o'ldirish kechirilmaydigan gunohlardan biridir, agar u chin dildan tavba qilmasa va o'ldirilgan kishining haqqi uzrini olmaydigan bo'lsa [3:231].

Tafsir olimlari bu masalada ixtilof qilgan. Jumhur ulamolar “qilingan tavba qabul qilinadi, agar chin dildan bo'lsa va gunohdan to'liq qaytsa” degan. Qotillik Alloh nazarida eng jirkanch jinoyatlardan biridir. Mo'min hayoti esa ilohiy ne'mat. Uni nohaq olish Allohga qarshi chiqishdir. Allohning arshi oldida javob beriladi bu jazoning og'irligini tasvirlaydi. Tavbaning sharti chin dildan pushaymonlik, gunohni tark qilish va haqli kishidan uzr so'rashdir.

MUHOKAMA

Imom Termiziyning “Sunan” asaridagi Tafsir bobida Qur'oni karim oyatlari hadislar orqali keng yoritilgan. Jumladan, “Niso” surasiga oid tafsiriy hadislar islom huquqining muhim jihatlarini – ya'ni meros vasiyat, ota-onaga ehtirom, ayolning jamiyatdagi o'rni, shuningdek, qotillik kabi dolzarb masalalarni yoritadi. Ushbu hadislar Qur'on oyatlarining mazmunini yanada chuqur anglashga, ularning amaliy hayotdagi talqinini to'g'ri tushunishga xizmat qiladi.

Jobir ibn Abdulloh (r.a.) rivoyat qilgan hadisda Payg'ambar (s.a.v.) meros haqidagi savolga bevosita javob bermasdan, Qur'oni karimda shu haqda oyat nozil bo'lishini kutgan. Bu hadis orqali Qur'onning Niso surasi 11- va 176-oyatlarida meros taqsimoti qanday tartib bilan belgilangani haqida aniq tafsirga ega bo'lish mumkin. Oyatlarda “erkakka ikki ayolga teng ulush” berilishi, “kalola” (ya'ni ota-onasi va farzandi yo'q kishi) ning merosi, opa-singillar va aka-ukalarning ulushi tafsilotli tarzda bayon qilingan. Bu, o'z navbatida, islomda meros taqsimoti shunchaki ijtimoiy tenglik

emas, balki adolatli mas'uliyat taqsimoti ekanini ko'rsatadi [6:132].

Ummu Salama (r.a.) rivoyat qilgan hadisda ayollar urushda ishtirok etmasligi va ularga merosning yarmi tegishi haqida aytiladi. Bu e'tirofqa Qur'oni karimdan Niso surasi 32-oyat nozil bo'ladi: "Alloh ba'zilarini boshqalardan ustun qilgani uchun orzu qilmanglar." Oyat ayol va erkak o'rtasidagi tafovutni rad etmaydi, aksincha, ularning vazifalaridagi farqni adolat asosida tan oladi. Keyin esa Ahzob surasi 35-oyati bilan ayollar va erkaklar din oldida tengligi e'tirof etiladi: "Mo'min erkaklar va mo'min ayollar..." Ushbu tafsiriy hadislar orqali ayollarga nisbatan adolatli va muvozanatli yondashuv Qur'on va Sunnat asosida tasdiqlanadi.

Ibn Abbos (r.a.) rivoyat qilgan hadisda Payg'ambar (s.a.v.) qiyomatda qotilning holati haqida bayon qilganlar. Qotillik jinoyati juda og'ir jinoyat sifatida tavsiflanib, Niso surasi 93-oyat bilan bu fikr tasdiqlanadi: "Kim bir mo'minni ataylab o'ldirsa, uning jazosi jahannamdir..." Ibn Abbos bu oyatning mansux emasligini ta'kidlab, qotilning tavbasiga shubha bilan qaragan. Bu tafsiriy yondashuvdan biz jinoyat va jazoning nafaqat dunyoviy, balki oxiratdagi oqibatlari ham muhim ekanini anglashiladi.

Imom Termiziy hadislarini keltirish bilan cheklanmay, ularni baholash, zaif yoki hasan darajasini aniqlash va sanadlarini zikr qilish orqali tafsir ilmining metodik asoslariga ilmiy yondashuv olib kirgan. Uning Tafsir bobidagi hadislar sahobalar tajribasi, tarixiy kontekst va oyatlarning sabab nuzuliga tayanib izohlangan bo'lib, bu tafsiriy hadislarining manbashunoslikdagi ahamiyatini oshiradi. Ushbu tafsiriy hadislar bugungi musulmon jamiyatida ham dolzarb bo'lib, meros, gender tengligi, jinoyat va jazoga oid masalalarda Qur'on va Sunnat asosida yondashishga imkon yaratadi. Shuningdek, ijtimoiy adolat, huquqiy tafovutlar va diniy mas'uliyatlar haqida to'g'ri tushuncha beradi.

NATIJA

Imom Termiziyning "Sunan" asaridagi Tafsir bobida "Niso" surasiga oid hadislar tahlili shuni ko'rsatadiki, hadis ilmi nafaqat shariatning amaliy qoidalarini mustahkamlash, balki Qur'oni karim oyatlarining ma'nosini ochib berishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, "Niso" surasi kabi ijtimoiy va huquqiy mavzularni o'z ichiga olgan

suralar tafsirida hadislar orqali chuqur tahliliy yondashuv yuzaga kelgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, meros masalasi, ayol va erkakning ijtimoiy o'rni, ota-onaga yaxshilik, qotillik va unga beriladigan jazolar kabi masalalarda hadislar Qur'oni karim oyatlariga muhim tafsiriy asos bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhuning boshidan kechirgan holati asosida nozil bo'lgan oyat (Niso surasi, 176-oyat) meros bo'yicha "kalola" hukmini ochib beradi. Bu hadis asosida shariatda ota-onasi va farzandi yo'q kishining mol-mulki kimlarga tegishini aniqlashtirgan. Bu holat tafsiriy hadislar orqali nozil bo'lgan oyatlarning sabab nuzuli va huquqiy tafovutlarni qanday tushunish kerakligini aniq ko'rsatadi.

Ummu Salama (r.a.) ning "Erkaklar jihodga chiqadi, ayollar esa chiqmaydi. Bizga esa faqat yarim meros tegadi" degan fikri orqali Qur'onda ikkita muhim oyat nozil qilingani (Niso surasi, 32-oyat va Ahzob surasi, 35-oyat) ayollarning ijtimoiy va diniy maqomi Qur'on va hadis asosida e'tirof etilganini ko'rsatadi. Hadisda bayon etilgan savol bu ayolning norozilik emas, balki diniy tenglik va hikmatni anglashga bo'lgan intilishidir. Qur'ondagi javob esa ijtimoiy rollar tafovutini adolatli tarzda tushuntiradi: erkakka ko'proq meros berilishi nafaqat huquq, balki mas'uliyat bilan bog'liq. Ayolning iqtisodiy himoyasi esa Islom tomonidan to'la kafolatlangan.

Niso surasining 93-oyati asosida bayon etilgan qotillik haqidagi hadisda mo'minni qasddan o'ldirishning eng og'ir gunoh ekani ta'kidlanadi. Ibn Abbos (r.a.) bu oyatni mansux emas, ya'ni hech qachon bekor qilinmaydigan qat'iy hukm sifatida taqdim etgani qotillikning yengilmas jinoyat emasligini ko'rsatadi. Bu esa musulmon jamiyatidagi hayot muqaddasligi, inson huquqlari va jazolashda ilohiy adolat mezonlarining nechog'lik yuksak ekanini ifodalaydi.

Imom Termiziy hadislarini tanlashda faqat sahahlik mezonlariga emas, balki ularning huquqiy va tafsiriy ahamiyatiga ham e'tibor bergani ko'rinadi. "Sunan" asarining Tafsir bobida hadislar nafaqat oyatlarni tushuntirish uchun keltirilgan, balki ular orqali Islom huquqshunosligi (fiqh), tafsir va axloqiy mezonlarning bir-biriga bog'liqligi ochib berilgan. Bu yondashuv Imom Termiziyning hadisshunoslikdagi nafaqat rivoyat, balki dirayat yo'nalishida ham yetuk mutaxassis bo'lganini ko'rsatadi [7:221].

Maqolada tahlil qilingan hadislar Qur'oni karimdagi oyatlar bilan uyg'unlikda o'rganilganda, quyidagi muhim ilmiy natijalarga erishildi:

– Hadislar Qur'oni karim oyatlarining sabab nuzulini ochib berishda va tafsir metodikasini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega;

– Ayollarning ijtimoiy va diniy maqomi Qur'on va hadis asosida muqaddas himoya ostiga olingan;

– Meros masalasidagi tafovutlar - shariatdagi adolat va ijtimoiy muvozanatga asoslangan huquqiy yechimdir;

– Qotillik jinoyatiga doir tafsiriy hadislar Islomda hayot muqaddasligi va jinoyatchilikka nisbatan qat'iy munosabatni asoslab beradi;

– Imom Termiziy "Sunan" asarida hadislarini joylashtirishda tafsiriy qiymatni ko'zlab, ularni huquqiy, axloqiy va manbashunoslik jihatidan baholagan.

Umuman olganda, ushbu tahlillar orqali hadis ilmining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy diniy-huquqiy muammolarni hal etishda ham dolzarb manba ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tafsiriy hadislarining sistematik o'rganilishi esa Qur'onni anglashda mustahkam poydevor yaratadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, Imom Termiziyning "Sunan" asari nafaqat hadis to'plami, balki tafsir, fiqh va ijtimoiy muammolarga yondashuv nuqtai nazaridan ham o'ta muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, "Niso" surasiga oid tafsiriy hadislar orqali Qur'oni karim oyatlari nafaqat so'zma-so'z tarjima yoki lug'aviy izohlar bilan emas, balki ijtimoiy hayotdagi real holatlar, sahobalar hayoti va muhim voqealar orqali tushuntirilgani aniq ko'rinadi.

Hadislar orqali Qur'on oyatlarining sabab nuzuli, mazmuni, shariatdagi amaliy ifodasi va tafsir metodikasi yoritilgan. Masalan, meros taqsimotidagi tafovutlar erkak va ayolning hayotdagi roliga qarab berilgan adolatli taqsimot ekani, qotillik jinoyatining Alloh huzuridagi og'irligi va mo'min hayotining muqaddasligi, ayollarning ijtimoiy maqomi va huquqiy muhofazasi haqida Qur'on oyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan hadislar orqali keng yoritilgan.

Imom Termiziyning yondashuvi hadis ilmi bilan tafsir ilmi o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu esa Qur'on oyatlarini faqat matn

emas, balki kontekst va sabablar bilan birga anglash, shuningdek, shar'iy hukmlarning tarixiy va ijtimoiy ildizlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilganda tafsiriy hadislarini o'rganish nafaqat Qur'on tafsirini to'g'ri tushunishga, balki islom manbashunosligida ijtimoiy tenglik, huquqiy tafovut, adolat va shariat asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda diniy qadriyatlarni anglash, gender tengligi, adolatli jamiyat qurish borasidagi bahslarda tafsiriy hadislar zamonaviy ijtimoiy-madaniy muammolarga ham javob bera oladigan boy manba ekanligi ayon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I.
2. Shamsiddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkirat al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
3. Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risala, 1996. – J. III.
4. Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy./ Tarjimon, sharh va izohlar muallifi: Mirzo Kenjabek. – T.: Sharq, 2010.
5. Ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahziyb. Dorul fikr, 1984. J. 9.
6. Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a'laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 18. – B. 513;
7. Akram Ziyu Umariy. Turos at-Termiziy al-'ailmiy. Maktaba ad-daar bil Madiynati al-munavvara, 2012.
8. Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Dahhak Termiziy. J.1.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol, 2018.